



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI GRUZIN BITIKLARIDA

Azizqulov Akram Abduraxmonovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, kafedra mudiri, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIII asr birinchi yarmida Kavkaz mintaqasida yuz bergan siyosiy-harbiy jarayonlar kontekstida Sulton Jaloliddin Manguberding Gruziya hududida olib borgan harbiy yurishlari hamda mazkur voqealarning gruzin tarixiy-yozma manbalarida aks etishi tahlil qilingan. Maqolada gruzin mualliflarining Sulton Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati va faoliyatiga nisbatan munosabati tarixiy, falsafiy va metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinib, mazkur obrazning gruzin tarixiy tafakkurida shakllanish omillari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Sulton Jaloliddin Manguberdi, a-zakovat, mardlik, Gruziya, gruzin bitiklari, munosabat.

СУЛТАН ДЖАЛАЛИДДИН МАНГУБЕРДИ В ГРУЗИНСКИХ НАДПИСЯХ

Азизкулов Акрам Абдурахмонович

Самаркандский институт экономики и сервиса, заведующий кафедрой, доцент

Аннотация

В настоящей статье в контексте военно-политических процессов, происходивших в Кавказском регионе в первой половине XIII века, анализируются военные походы Султана Джалаладдина Мангуберди на территорию Грузии, а также отражение этих событий в грузинских письменных исторических источниках. В статье на основе исторических, философских и методологических подходов анализируется отношение грузинских авторов к личности и деятельности Султана Джалаладдина Мангуберди и освещаются факторы формирования данного образа в грузинском историческом сознании.

Ключевые слова: Султан Джалаладдин Мангуберди, мудрость, доблесть, Грузия, грузинские письменные источники, отношение.

SULTAN JALOLIDDIN MANGUBERDI IN GEORGIAN INSCRIPTIONS

Azizqulov Akram Abduraxmonovich

Samarkand Institute of Economics and Service, Head of Department, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the military campaigns of Sultan Jalaluddin Manguberdi in Georgia in the context of the political and military processes that took place in the Caucasus region in the first half of the 13th century, as well as the reflection of these events in Georgian historical and written sources. The article analyzes the attitude of Georgian authors to the personality and activities of Sultan Jalaluddin Manguberdi based on historical, philosophical and methodological approaches, and highlights the factors that shaped this image in Georgian historical thought.

Keywords: Sultan Jaloliddin Manguberdi, a-zakovat, courage, Georgia, Georgian inscriptions, attitude.

Bashariyat tarixida oʻzining jasorati va mardligi, qahramonligi va vatanparvarligi, Vatan ozodligi uchun tinimsiz kurashganligi bilan oʻchmas iz qoldirgan Sulton Jaloliddin Manguberdi millatimiz iftixori va yoshlarimiz uchun ibrat namunasidir. Sulton Jaloliddin Manguberding buyukligi uning nafaqat jasoratida, balki aslzodalarga xos teran tafakkuri va yuksak aql-zakovati sohibi boʻlganligidadir.

Sulton Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga oid maʼlumotlar Sharq musulmon tarixnavisligi anʼanalarida, xususan, an-Nasaviy, Ibn al-Asir, Juvayniy va boshqa mualliflar asarlarida keng yoritilgan boʻlsa-da, uning Kavkaz mintaqasidagi faoliyatini rekonstruksiya qilishda gruzin yozma manbalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu manbalar voqealarga mintaqaning mahalliy siyosiy manfaatlari va konfessional qarashlari nuqtayi nazaridan baho berishi bilan ajralib turadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev taʼkidlaganidek: “El-yurt ozodligini oʻz hayotidan ham ustun qoʻygan Jaloliddin Manguberdi kabi mardlik va jasorat timsoli boʻlgan bobolarimiz bugun xalqimizning iftixoriga aylangan” [1; 242].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar Sharq va G'arb tarixshunosligida keng yoritilgan. Mazkur mavzuni o'rganishda Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning *"Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti"*, Ibn al-Asirning *"Al-Kamil fi-t-tarix"*, Atomalik Juvayniyning *"Tarixi jahongushoy"*, Z. Bunyodovning *"Anushtegin Xorazmshohlar davlati"*, Oydin Tonariyning *"Jaloliddin va uning davri"* kabi asarlari muhim birlamchi manbalar hisoblanadi. Ushbu manbalarda sarkardaning siyosiy faoliyati, mo'g'ullarga qarshi kurashi hamda Kavkazdagi harbiy yurishlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Shu bilan birga, gruzin yozma manbalari orasida *"Kartlis Sxovreba"* ("Gruziya hayoti") majmuasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda Sulton Jaloliddin Manguberding Gruziya bilan munosabatlari, harbiy yurishlari va uning shaxsiga doir ma'lumotlar aks etgan. Shuningdek, mazkur manbalar Kavkaz mintaqasidagi siyosiy vaziyatni mahalliy nuqtayi nazardan yoritishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslangan holda qiyosiy-tarixiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Millatimiz iftixori Sulton Jaloliddin Manguberding aql-zakovati, jasorati hamda matonati o'z davrida hatto raqiblari tomonidan ham munosib e'tirof etilgan. Biz quyida Sulton Jaloliddin Manguberdi xususida gruzin bitiklaridan biri haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Ma'lumki, qadimgi gruzin bitiklari va solnomalari XIII asr Kavkaz tarixini o'rganishda muhim manbalar sirasiga kiradi. Ushbu manbalarda Sulton Jaloliddin Manguberding Gurjiston bilan siyosiy va harbiy munosabatlari, uning Kavkazdagi faoliyati hamda mintaqadagi kuchlar nisbatiga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Biroq, mazkur ma'lumotlar ko'pincha gruzin mualliflarining siyosiy qarashlari va davr ruhidan kelib chiqib yoritilganligi sababli, ularni boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish zarurati mavjud.

Tarixdan ma'lumki, sarkarda qo'shinlari 1226-yilning 9-martida Gruziya hududini, jumladan, Tiflis shahrini bosib oladi. Shaharni bosib olgunga qadar gurji qo'shinlariga boshliq etib Ivane Mxargrdzening o'g'li Avag tayinlanadi. Sulton Jaloliddin Manguberdi gruzinlar ustiga yurishdan oldin Avagni chaqirib, sulh tuzishni taklif qilganligi gruzin manbalarida qayd etiladi. Xususan, *"Kartlis Sxovreba"* bitiklarida Sulton Jaloliddin Manguberding Avagga sulh taklifi quyidagicha bayon etiladi: "Men Gurjistonga uni vayron qilish istagi bilan emas, balki tinchlik va osoyishtalik uchun keldim. Biroq, siz shoshilinch ravishda qurollanib, men bilan qattiq to'qnashdingiz va tinchlik bo'lmadi. Endi menga quloq soling, siz, gruzinlarning eng zodagoni va qirollik saroyining vaziri: mening nasabimni, qabilamni, saltanatimning buyukligi va mo'l-ko'lligini hamda hech bir hukmdor menga teng kela olmasligini bilasizmi? Men oliy va buyuk shoh Xorazmshohning o'g'liman va mening hukmronligim ostida Adarbadagandan Geongacha (Geon — gruzincha Jayxun, ya'ni Amudaryo nomining shakli) va Geondan Hindistongacha, shuningdek, Turon, Fors, Chin-Mochin va butun Sharqqacha bo'lgan hududlar bor edi" [2;340].

Sulton Jaloliddinga raqib tomon bo'lgan gurji tarixchilari tomonidan yozilgan bu bitikda sarkardaning o'sha davrda nafaqat matonati va jasorati, balki mohir diplomatligi va adolatligi ham xalqaro miqyosda e'tirof etilganligi aks etadi. Jumladan, Muhammad Xorazmshoh haqida to'xtalar ekan, muallif: "... uning o'g'li Sulton Jaloliddin — jasur va qo'rqmas odam, go'yo jismonan qiyofasiz bo'lsa-da, ajoyib jangchi edi. U otasini qutqarish uchun oz sonli qo'shin bilan keldi, uni darhol qo'lga oldi va ikkalasi ham Xurosonga qochib ketishdi" [2;336], deb ta'kidlaydi.

Biroq, manbalarning tanqidiy tahlili shuni ko'rsatadiki, gruzin tarixnavisligida Jaloliddin Manguberdi shaxsiga nisbatan faqat salbiy munosabat mavjud emas. Ayrim o'rinlarda uning sarkardalik iste'dodi, harbiy strategiyasi, siyosiy qat'iyyati va mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurashdagi jasorati bilvosita e'tirof etiladi. Bu esa gruzin mualliflarining voqealarni yoritishda ma'lum darajada tarixiy obyektivlik tamoyillariga amal qilganliklarini ko'rsatadi. "... mo'g'il-tatarlarning yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan barcha podshohlarning eng ulug'i va eng buyugi Xorazmshoh (o'sha paytda yoshi anchaga borib qolgan, sultonlik va saltanat jilovi uning o'g'li Jaloliddinning qo'lida bo'lib, u Jayxun, Xuroson va Eronga egalik qilardi) olti yuz ming kishilik qo'shini bilan (Jaloliddinni) chaqirib, Chingizxon ustiga yurish qildi" [2;336].

Umuman olganda, Sulton Jaloliddin Manguberding hayoti, siyosiy faoliyati hamda mo'g'ullar istilosiga qarshi olib borgan kurashi haqidagi ma'lumotlarning Sharq tarixnavisligi namunalarida keng yoritilganligi va mazkur asarlarning XVIII–XX asrlar davomida fransuz, ingliz hamda nemis tillariga tarjima qilinishi Yevropa ilmiy jamoatchiligining ushbu tarixiy shaxsga bo'lgan qiziqishini sezilarli

darajada kuchaytirdi. E'tiborlisi, Sulton Jaloliddin Manguberdi siymosi nafaqat Yevropa tarixshunosligida, balki sovet davri mafkuraviy cheklovlari hukm surgan sharoitda ham tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmadi. Garchi mazkur davr tarixshunosligida milliy qahramonlar faoliyatini baholashda sinfiy va mafkuraviy mezonlar ustuvor bo'lgan bo'lsa-da, Jaloliddin Manguberding harbiy-siyosiy faoliyati va tarixiy xizmatlariga bag'ishlangan ilmiy hamda badiiy asarlar yaratilganligi uning shaxsiga bo'lgan qiziqishning uzluksiz davom etganidan dalolat beradi. Mazkur holat nafaqat Sharq manbalarida, balki o'sha davr voqealarini aks ettiruvchi gruzin yozma manbalarida ham o'z ifodasini topgan. Gruzin solnomalari va tarixiy bitiklari tahlili shuni ko'rsatadiki, Jaloliddin Manguberdi XIII asr Kavkaz siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan harbiy-siyosiy arbob sifatida tasvirlangan. Shu bois uning faoliyati mintaqa xalqlarining tarixiy xotirasida sezilarli iz qoldirgan hodisalardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, "Kartlis Sxovreba" bitigida Sulton Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati asosan ijobiy fazilatlar nuqtayi nazaridan tasvirlangan. Xususan, manbada uning insonparvarligi, bag'rikengligi va siyosiy-harbiy faoliyatida namoyon bo'lgan yuksak axloqiy fazilatlariga alohida e'tibor qaratiladi. E'tiborlisi shundaki, Sulton Jaloliddin Manguberdi bilan harbiy-siyosiy qarama-qarshilikda bo'lgan gruzin mualliflari tomonidan yaratilgan mazkur manbada uning shaxsiga nisbatan keskin salbiy yoki kamsituvchi tavsiflar deyarli uchramaydi. Aksincha, ayrim voqealar bayonida mualliflarning sarkardaning jasorati, siyosiy qat'iyati va shaxsiy fazilatlariga nisbatan ma'lum darajadagi e'tirofi seziladi. Bu holat "Kartlis Sxovreba" mualliflarining ayrim masalalarda tarixiy voqelikni nisbatan xolis yoritishga intilganliklarini hamda Sulton Jaloliddin Manguberdi shaxsining hatto siyosiy raqiblar tomonidan ham e'tirof etilgan tarixiy arbob sifatida qabul qilinganligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Sulton Jaloliddin Manguberdi haqidagi mulohazalardan uning bosqinchi jangari lashkarboshi sifatida emas, balki vaziyatga mantiqiy tafakkur asosida ratsional yondashadigan aslzoda sarkarda ekanligi bilinib turadi.

Uchinchidan, Sulton Jaloliddin Manguberding maqsadi Gurjistonni talon-toroj qilish emas, balki "tinchlik asosida hamkorlik qilish" ekanligi yaqqol ko'rinib turadi.

To'rtinchidan, Sulton Jaloliddin Manguberding sarkarda sifatida mohir strateg ekanligi, ya'ni gurjilarning vaziyatini to'g'ri baholay olgani: "Sizlar ularga qarshilik qila olmaysizlar, buning uchun kuchlaringiz yetmaydi", deb murojaat etishida namoyon bo'ladi. Sarkardaning taktikasi esa gurjilar bilan "tinchlik asosida hamkorlik qilish" va "dushmanga qarshi birgalikda kurashish"dan iborat bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Oqqan daryo aslo to'xtamas // Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. B. 239–272.
2. Картлис Цховреба. История Грузии / гл. ред. академик Роин Метревели. Тбилиси: Артануджи, 2008. 456 с.
3. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti / Kamol Matyoqubov tarjiması. Toshkent: O'zbekiston, 2006. 384 b.
4. Oydin Tonariy. Jaloliddin va uning davri / turk tilidan Boboxon Muhammad Sharif tarjiması. Toshkent: Sharq, 1999.
5. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фит-тарих («Полный свод по истории»): избранные отрывки / пер. П. Г. Булгакова, Ш. С. Камолиддина. Ташкент, 2006. 560 с.
6. Latifova S. Jalal-Al Din Mangburni's Struggle Against the Georgians, the Mongols and Ismaili's // The 15th China to Adriatic Turkish World International Scientific Research Congress. 2024. P. 278–289.
7. Тимохин Д. М. Арабо-персидские и армяно-грузинские историки о деятельности хорезмшаха Джалал ад-Дина Манкбурны на Кавказе (1225–1231 гг.) // Вестник РГГУ. Серия: Литературоведение. Языкознание. Культурология. 2011. № 12 (74). С. 88–101.